

QODIROV MUHAMMADJON

MARKAZIY OSIYO
XALQLARINING
FALSAFIY MEROSI

Monografiya

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING FALSAFIY MEROSI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

MUHAMMADJON QODIROV

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING FALSAFIY MEROSI

MONOGRAFIYA

Toshkent – 2025

Qodirov Muhammadjon. *Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy merosi.* – T., 2025. 226 b.

ISBN:978-9910-8553-9-9

Mazkur monografiya Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning falsafiy tafakkuri tarixini tizimiy yoritib berishga yo'naltirilgan harakat natijasidir.

Monografiyada Sharq falsafasini o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari, falsafaning musulmon jamiyatidagi o'rni va Sharq mutafakkirlari tomonidan shakllantirilishi, Yunon, Iskandariya, Eron, Hind va Arab falsafalarining ta'siri ostida O'rta Sharq va Markaziy Osiyoda falsafiy ilmlarning tarqalishi va rivojlanishi, hamda islom falsafiy madaniyatining yoyilishi, kalom maktablari faoliyati, hadisshunoslik, fiqh, tabiiy-ilmiy qarashlar rivoji, yangi pifagorcha falsafa, yangi aflowuncha maktab qarashlarining taraqqiyoti va bunda faoliyat olib borgan olimlarning ijodi, dunyoqarashlari haqida ma'lumoti beriladi. Shuningdek, tabiatshunoslikning islom dunyosiga kirib kelishi va diniy aqidalarga nisbatan ilmiy bahslarning boshlanishi va bunda mashhur olimlarning tutgan o'rni, hamda tasavvuf ta'limoti va uning Markaziy Osiyodagi oqimlari, nazariy jihatdan shakllanishi xususida so'z boradi. Musulmon Ispaniyasida falsafiy tafakkur rivoji bilan birga Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikr, mazkur davrdagi mutafakkirlarning qarashlari va mantiq faniga bo'lgan munosabatlari o'z aksini topgan.

Monografiya oliy ta'lim muassasalari bakalavr, magistratura bosqichi talabalari, va umuman, Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasi xalqlari ma'naviy dunyosining shakllanishi bilan qiziquvchi kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

I.R. Ikramova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

J.B.Sulaymonov - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori

G.M.Ruzmatova – Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori

Ushbu monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy kengashining 2025-yil 29-dekabrda 5-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va nashr etishga tavsiya etilgan.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

KIRISH

Markaziy Osiyo va Eron xalqlari juda qadim zamonlardan beri yagona madaniy makonda yashab kelmoqdalar. Shuning uchun bu xalqlar madaniyatini o'rganish qadimgi Yunoniston va qadimgi Rimda boshlangan edi.

XIX asrning uchdan ikkinchi qismigacha Sharq va G'arb falsafasi **umuman**, mustaqil ravishda rivojlandi. Bu yerda quyidagilarni qayd etib o'tish lozim. X-XI asrlardagi arab tilidagi falsafaning shakllanishi bevosita qadimgi dunyo falsafasi, avvalo Arastu va Aflotun qarashlari ta'sirida yuz berdi. Tasodifiy emaski, "Sharq peripatetizmi" istilohi mavjud. O'z navbatida, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Tufayl va Ibn Rushd kabi arab tilida ijod qilgan faylasuflarning asarlari o'rta asrlardagi Yevropa falsafiy tafakkuriga ta'sir o'tkazdi. Keyinchalik musulmon Sharqining falsafasi borgan sari ko'proq islom yo'nalishi taraqqiyotida o'zining yorqin ifodasini topa boshladi.

O'zining tushunchaviy dastgohi, muammolarning qo'yilish tarzi, masalalar va ularni yechish usullarini topishdagi fikriy vositalar, ya'ni u yoki bu tarzda falsafiy tafakkurning bir butun jihati va xususiyati nuqtai nazaridan Sharq va G'arbning falsafiy tizimlari bir-birlaridan shunday jiddiy tafovutlarga ega ediki, bu narsa ko'pgina mutafakkirlarga Sharq va G'arb falsafiy tafakkurining **o'ziga xosligi** haqida gapirishga turtki berdi. XX asrning birinchi yarmida bu falsafiy tafakkurning asosiy alohidalik tarzi saqlanishda davom etdi. Bundan tafakkur tarzining ichidagi turli falsafiy oqimlar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Misol sifatida Yevropa falsafasini olamiz. An'anaviy **mumtoz** falsafa davomchilari ham (yangi kantchilik, yangi hegelyanchilik, yangi tomizm), yangi **aksilmumtoz** va **mumtoz bo'lmagan** yo'nalishlarning asoschilari ham (hayot falsafasi, pozitivizm, ekzistensializm, marksizm) o'zlaridan boshqa barcha yo'nalishlarga qarshi turganliklarini e'lon qilish zaruriyati bor, deb hisoblar edilar. Agar XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmi falsafasidagi oqimlar holatini qisqacha ifodalasak, uni quyidagicha ta'riflash mumkin: **barchaning barchaga qaratilgan urushi**.

XX asrning ikkinchi yarmidagi falsafiy tizimlarning tarqoqligi va bir-biriga qarama-qarshiligi ikki asr chegarasidagi jamiyatning umumiy tanazzuli va o'tish davrining qarama-qarshiligini ifodalalar

ediki, bu davrda insoniyat ilgarigi hayot tarzi shakllarini keskin tanqid qilib, ijtimoiy hayotning yangi shakllarini qidirishga boshlagan edi.

XX asrning ikkinchi yarmida vaziyat tubdan o'zgaradi. Birinchidan, dunyoviy jarayonlarning o'ta umumiy lashuvi yuz beradi. Bu hodisani K.Yaspers qayd etib, 40-yillarda yozgan edi: **“Barcha muhim muammolar butun dunyo muammolariga, vaziyat – butun bashariyat vaziyatiga aylandi”**¹.

Insoniyat bir-biriga bog'liqligi, birlik va butunligini anglash tomon bormoqda. Zamonning qat'iy talabi madaniyatlarning bir-biri bilan muloqotidir va bu jarayonning eng muhim qismi Sharq va G'arb o'rtasidagi falsafiy suhbat (dialog)dir.

Ikkinchidan, bugun biz ko'p qutbli dunyo shakllanishining shohidi bo'lib, dunyo taraqqiyotining yangi markazlari maqomini olishga da'vogarlik qilayotgan mintaqalarning tashkil topishini kuzatib turibmiz. Ilgari texnologik va iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan Sharq endilikda o'zining iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlari jihatidan G'arb bilan solishtirilmoqda. Agar Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyoning Yaponiya, Janubiy Quriya, Singapur, “Katta Xitoy” (Xitoy, Gonkong, Tayvan) kabi ma'naviy madaniyatda umumiy belgilarga ega bo'lgan mamlakatlarni olsak, unda biz dunyo taraqqiyotining yangi mintaqaviy markazi haqida so'z yurita olamiz. Sayyoraning markaziy osiyocha mintaqaviy markazining shakllanishi yuz bermoqda.

Shubhasiz, yangi voqeiylik o'z aksini falsafada ham topmoqda. Falsafiy maktablarning bir-biriga qarama-qarshiligi asta-sekin o'zaro hamsuhbatlikka va birlashtiruvchi nuqtalarni izlash tomon bormoqda. Falsafiy yo'nalishlarni dag'allik bilan qalamga olish barham topmoqda. Turli falsafiy dasturlar sinteziga asoslanib tashkil topgan yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Ekzistensializm va yangi hegelyanchilik, yangi tomizm, yangi kantchilik, fenomenologiya, germeneytika va lingvistik tahlil, ekologik insonparvarlik va strukturalizm, bixeviorizm va intuitivizm, yangi pragmatizm va boshqa oqimlar o'rtasida yangi duragaylar paydo bo'lmoqda². Masalan, agar marksizm falsafasini olsak, unda an'anaviy marksizm bilan bir qatorda, biz xristiancha marksizm, tahliliy marksizm, freydcha marksizm, ekzistensiyacha marksizmni topamiz.

Vitgenshteyn va Haydeggerning g'oyalari Karl Otto Apel ijodida

¹ К.Ясперс. Смысл и назначение истории (Tarixning ma'no-mohiyati va risolati). –М., 1994. – В.141.

² Qarang: С.Ангелов, Д.Павлов. Философия, наука, общество. (Falsafa, ilm-fan, jamiyat). –София, 1975. (Bulg'orchadan tarjima). –В.69.

o‘z birikmasini topadi. Gusserl va Frege g‘oyalari Gyunter Patsiga va Ernst Trugendxat ijodida bir-biriga qo‘shilib, singib ketadi. Hegel va Marks g‘oyalari, Marks Veberning ijtimoiy aqliylashgan nazariyasi, Kolbergning axloqiy nazariyasi, Sirlning til harakati nazariyasi, Parsonsning tizim nazariyasi Yu.Xabermas ijodida o‘z birlashgan yakunini topadi. Boshqa yo‘nalishlar haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Yu.Xabermasning o‘zi oxirgi o‘n yillikdagi falsafiy vaziyatni shunday ta’riflaydi: **“Umuman oxirgi o‘n yillikda shunday hissiyot tug‘ildiki, bizning yuz yilligimiz uchun xos bo‘lgan falsafiy harakatlar o‘zlari odatlangan belgilarini yo‘qotmoqdalar. Biz, go‘yoki o‘tish davrida yashayotgandekmiz”**¹.

G‘arb va Sharq falsafiy madaniyatlarining o‘zaro bir-birlariga kirib borish jarayoni ko‘proq faollashmoqda. Sharq mamlakatlarida yevropacha-amerikancha falsafiy an‘analar bilan tanishish borgan sari chuqurlashib bormoqda. Boshqa tomondan, Sharq falsafiy tizimlarining an‘anaviy g‘oyalari G‘arbda o‘zining yoyilishini davom ettirmoqda. A.Shopengauer, F.Nisshe, U.Djems, R.Emerson, Dj.Roys, M.Haydegger, K.Yaspers, K.Yung, E.Fromm va boshqalar o‘zlarida u yoki bu darajada Sharqning falsafiy va diniy ta’limotlari tomonidan ta’sirga duchor bo‘lganliklarini sezdilar.

Masalan, XX asr Yevropa falsafasining eng muhim yo‘nalishlari boshida turgan A.Shopengauer o‘zining asosiy asari bo‘lgan “Dunyo iroda va tasavvur sifatida” kitobining muqaddimasida kitobxonni ogohlantirib yozadiki, qadimgi hind donishmandligi bilan tanishish, uning falsafasini tushunishning shartlaridan biridir. Mana shu asarning o‘zida u yozadi, “Hind donishmandligi yana qayta Yevropaga intilib, bizning bilimlarimiz va tafakkurimizda tubdan to‘ntarish yasaydi”². M.Haydeggerning do‘stlaridan birining eslashicha, mashhur faylasuf, yapon mutafakkiri D.T.Sudzukining “Dzen-buddaviylik” kitobini o‘qib chiqib qayd qilgan ekan: “Agar men bu odamni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, bu shuning o‘ziki, men o‘zimning barcha asarlarimda o‘shani aytishga harakat qilganman”³. Va shunga o‘xshash gaplarning ro‘yxatini davom ettirish mumkin.

Sharqning dunyoqarash yo‘nalishlarining hozirgi zamon G‘arb fikriga ta’siri, avvalo, insonning ichki dunyosini falsafiy tushunish, mikrokoinot va makrokoinot uyg‘unligi, ijtimoiy qurilish, axloqiy va

¹ Вопросы философии (Falsafa masalalari) jurnali. –M., 1989. №9. –B.80.

² А.Шопенгауэр. Собрание сочинений (Asarlar to‘plami). –M., 1992. T.1. –B.334.

³ Iqtibos: “История современной зарубежной философии” (“Hozirgi zamon xorijiy Sharq falsafasining tarixi”). –СПб., 1997. –B.404.

estetik g'oyalarga taalluqliligidadir. Gap shundaki, agar ma'lum shartlar bilan aytish mumkin bo'lsaki, G'arb **tashqi dunyoni** (tabiatni) nazariy jihatdan o'zlashtirishda muhim ko'rsatkichlarga va natijalarga erishgan bo'lsa, Sharq ham **ichki dunyoni** (insonni) bilish yo'lida qat'iy ta'sir qoldiruvchi yutuqlarga erishdi. Shu munosabat bilan akademik N.N.Konrad yozgan edi: "Har bir avlod uchun shuni yodda tutish zarurki, Sharqning inson va jamiyat haqidagi ilmning barcha sohalaridagi nazariy fikrini hisobga olmoq lozim, negaki, ayniqsa ana shu sohalar g'oyat mufassal va keng miqyosda Sharqda ishlab chiqilgan"¹.

Yevropamarkazchilik qarashlarini tanqid ostiga olgan, ekzistensializmning klassiklaridan biri bo'lgan K.Yaspers Sharq madaniyatiga murojaat qilish zarurligini qayd etib yozadi: "Osiyoda bizga yetishmaydigan narsa bor va u biz uchun jiddiy ahamiyatga ega! U yerdan bizga qaratilgan savollar yangramoqdaki, ular bizning qalblarimiz tubida ko'milgandirlar. Biz ijod qilgan barcha narsa uchun, biz nimani qila olgan bo'lsak, biz nimalarga erishgan bo'lsak, buning uchun biz muayyan baho to'ladik. Biz hali inson tabiatining kamoloti yo'lida emasmiz. Osiyo biz uchun zaruriy qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi"².

G'arb va Sharqning ilgari qabul qilingan va g'arbiy hamda sharqiy madaniyatlar xususiyatini ifodalovchi nazariy izlanishlari XX asrdan boshlab-integratsion jarayonlar sharoitida – endi bir tomonlama idrok qilina boshlandi. Inson madaniyatidagi **tashqi** va **ichki uyg'unlik** zaruriyati, jahon madaniyatida **zotida borlik** va **butunlikka** erishish zaruriyati Sharq va G'arb madaniyatlari suhbatlashuvini ko'proq shiddatli va muhim vazifa qilib qo'yadi. XX va hozirgi XXI asrni "turli madaniyatlarning haqiqiy uchrashuvi, turli xildagi sivilizatsiyalarning muloqot asri sifatida"³ ifodalash mumkinki, unda turli falsafiy madaniyatlar suhbatlari ularning tarkibiy qismlaridan biridir. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, ushbu o'quv qo'llanmasini XXI asr talabalari uchun zarur deb hisoblaymiz.

Mustaqillik yurtimizga nafaqat siyosiy erkinlikni, balki mamlakatimizga millatdek, xalqimizga xalqdek yashash, mustaqil fikrlash erkinligini ham berdi. Shu tufayli biz falsafani, uning tarixini dunyoviylik, insonparvarlik nuqtai nazaridan o'rganish imkoniyatiga

¹ Н.И.Конрад. Запад и Восток (G'arb va Sharq). –М., 1972. –Б.27.

² К.Ясперс. Смысл и назначение истории (Tarixning ma'no-mohiyati va risolati). –М., 1994. –Б.90.

³ История современной зарубежной философии (Hozirgi zamon xorijiy Sharq falsafasining tarixi). –СПб., 1997. –Б.29.

ega bo'ldik. Mamlakatimiz fuqarolarida tafakkur erkinligi shakllanib bormoqda. Yurtimizda sodir bo'layotgan murakkab yaratuvchilik tafakkur mustaqilligi bilan uzviy bog'liq hodisadir. Mamlakat hayotini demokratlashtirish jarayoni qanchalik kengaysa va chuqurlashsa, fuqarolarimiz falsafiy iqtidoriga bo'lgan talab shuncha oshib boradi. Shuning uchun ham falsafa ilmi yoshlarga ham, o'rta yoshlilarga ham, katta yoshdagilarga ham bab-barobar suv bilan havodek zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojdir. Bu ilm o'zining tabiatiga ko'ra chegara bilmaydi. Mazkur chegara bilmas ilmni egallashning mohiyatini bilmaslikdan bilishga, bilishdan komillikka tomon yo'naltirilgan faoliyat tashkil qiladi. Bundan tashqari falsafa ilmining yana bir muhim jihati shundaki, u qanchalik o'zlashtirilsa, o'zlashtiruvchi o'z oldiga yana yangi-yangi muammolarni qo'yaveradi, qo'yilgan har bir muammoning yechimi yangi bir muammoning debochasi hisoblanadi.

Falsafa ilmi milliy, ayni vaqtda umuminsoniy qadriyatdir. Mazkur qadriyat inson o'zini-o'zi inson sifatida tanigan kunidan boshlab takomillashib, rivojlanib, chuqurlashib, murakkablashib, ilmiylashib va tobora insoniylashib borayotgan fandir.

Falsafa dunyoqarashlarning boshqa shakllaridan shu bilan farq qiladiki, u eng avvalo ijtimoiy ongning ilmiy sohasiga taalluqlidir. Uning tarkibida esa boshqa fanlardan farqli o'laroq, o'ziga xos tushunchaviy dastgoh mavjud bo'lib, u o'z taraqqiyotida qandaydir bir fanga tayanmasdan, balki barcha fanlarga, insoniyat o'zining butun taraqqiyoti davomida erishgan tajribasining yaxlit holda to'plagan bilimiga tayanadi.

Falsafaning mohiyati – bu “olam-odam” tizimidagi umumiy muammolar ustida fikr-mulohaza yuritishdan iboratdir.

Falsafa ichki jihatdan ixtisoslashmagan, kundalik hayotda mavjud bo'lgan bilimlar bilan bog'liqdir. Bunday aloqa eng avvalo falsafaning tilida namoyon bo'ladi. Falsafaning tili shaxsning hayotiy tajribasini qayd etadigan so'zlarga boy bo'ladi. Bu so'zlarning vazifasi – odamlarning har kungi amaliy faoliyatini, ularning o'z atrofida sodir bo'layotgan voqelik bilan bevosita aloqaga kirishishlarini ta'minlash, shu jumladan, umumijtimoiy muhit bilan bevosita aloqaga kirishishini ta'minlashdan iborat. Falsafa tilini har kuni ishlatadigan tilimiz bilan solishtirib tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, umuman olganda falsafaning tili maxsus fanlar tiliga nisbatan jonliroq, tabiiy tilga yaqinroqdir. Falsafiy tushunchalar madaniyatning rivojlanib borishi asosida shakllanadi hamda kundalik til tarkibida mujassamlashadi. Falsafa

so'zlarni izohlash jarayonida o'z tushunchalarini tizimlashtiradi, ularning ma'nosini yanada chuqurlashtiradi, lekin ularning umumiy ma'nosini ham, iste'moldagi ma'nosini ham o'zgartirmaydi.

Falsafiy bilimlarning mazmuni o'z ichiga sog'lom fikrni jamlab, hodisalarning eng muhim sabablarini bilishga va ulardan kundalik amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan bo'ladi.

Aynan mana shu kundalik bilimlarda, ularning teran ma'nosida insoniyat hayotidagi bebaho qadriyat – "donolik" deb nom olgan fazilati qiyomiga yetib, chuqur ma'no kasb etib boraveradi. Tabiat to'g'risidagi bilimlarda bunday qadriyat ishlatilmaydi. Shuning uchun ham biz ba'zan kishilarni "o'z fanini yaxshi biladigan mutaxassis" deymiz, lekin uni hech qachon "dono odam" demaymiz. Mabodo u yoki bu olim to'g'risida mazkur tushunchani qo'llaydigan bo'lsak, bu o'sha olimning o'z fanini nechog'lik bilishinigina ifodalamaydi, balki o'sha olimning olamga, hayotga nisbatan umumiy munosabatiga taalluqli bo'ladi.

Falsafiy fikrlash qobiliyati mutaxassis faylasuflar bo'lmagan kishilarda ham donolik deb ataluvchi xususiyatni shakllantirib boradi. Ayni vaqtda, xususan, falsafa ilmi bilan shug'ullanuvchi kishilar o'z sohasi muammolari ustida fikr-mulohaza yuritishi jarayonida, kundalik turmushga nisbatan munosabatlar jarayonida shu qadar yuksaklikka ko'tariladilarki, ularning erishgan darajasi biz aytayotgan "donolik" tushunchasiga muvofiq keladi.

"Donolik" deganda biz hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrokni, haqiqat va yaxshilik birligini, oliy haqiqatni, sevgi va rostgo'ylik mushtarakligini, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holatini, qadriyatlarni qadrlash, his-tuyg'ularning hayotga singib ketishini, har qanday narsaga va hodisaga mehr bilan qarash, har qanday masalaga tashvishli murakkab holatlarda ham aql ko'zi bilan qarashni tushunamiz.

Yuqoridagi mulohazalarni hisobga olgan holda ushbu o'quv qo'llanmani talabalar, magistrLAR, ilmiy tadqiqotchilar va falsafaga qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasi uchun dolzarb hisoblaymiz.

SHARQ FALSAFASIGA MUQADDIMA

Aql-idrok va hayotning nazariy jihatlarini haqidagi tasavvurlar qadimgi dunyo falsafasida undan kengroq dasturning bir qismi sifatida vujudga kelgan bo'lib, uning mohiyati shunda ediki, shahar-davlat (polis)ni boshqarishda ishtirok etadigan har bir insonni har tomonlama ushbu faoliyatga tayyorlash edi. Bunday vazifani tor siyosiy maqsad sifatida baholash shoshqaloqlik bilan qilingan mulohaza bo'lar edi. Qadimgi dunyoning hayotiy dunyosi doirasida biomorfik metashakllar saqlangan va qaytadan shakllantirilgan bo'lib, ularga muvofiq tabiat qayta tashkil topgan va texnik chigalliklarga yo'liqqan ob'ekt sifatida emas, balki hayotda o'z o'rniga ega bo'lgan narsa sifatida talqin etilib, uning qonunlarini nazariyotchi bilishi va hurmat qilishi lozim, deb tushunilar edi. Xuddi ana shu sun'iy, mexanik tabiatga emas, balki tabiiylikka bo'lgan qiziqish shunga dalil bo'la oladiki, yunonistonliklar mumtoz mexanikaga o'xshash narsaga asos solmay, balki o'zlaridan bir butun va tizimga solingan qoidalarini meros qoldirdilar.

Bilish va o'z-o'zini bilish-bular shunday aqliy amaliyotki, ular koinot bilan bog'liq bo'lgan uyg'unlikni va unga muvofiq keladigan jamiyatning shakllanishini idrok etish bo'lib, bular ham o'z navbatida inson xaqidagi g'amxo'rlikni ko'zda tutgan holda tashkil topganlar. Hozirgi zamon ta'lim-tarbiyasidan farqli o'laroq, qadimgi zamon ta'lim tizimi axborotlarni berish va aqliy qobiliyatni mashq qildirishdangina iborat emas edi. U hayot uchun zarur bo'lgan jismoniy va ruhiy sifatlarni tayyorlashni ko'zda tutar edi. Shunday qilib, Yunon falsafasining sof haqiqatni topishga bo'lgan yo'nalishini inkor etmagan holda, shuni qayd etmasdan bo'lmaydiki, ushbu haqiqat avvalo, qurilmagan, balki ochilgan, unga yuklatilmagan, balki borliqdan keltirib chiqarilgan, ikkinchidan esa, bevosita hayotiy ahamiyatga ega bo'lib, uni tushungan sub'ekt qalbini yoritgan, unga donishmandlik ato etgan, sabru toqatga chidashni o'rgatgan, jasorat bag'ishlagan va uning xatti-harakatini belgilab bergan.

Nazariy ko'rsatma-qadimgi dunyo madaniyatining eng muhim yutuqlaridan biri bo'lib, Yaqin Sharq mamlakatlari orqali u Yevropa madaniyati tomonidan o'zlashtirilgan. Ushbu ko'rsatma Fales ijodidayoq o'zini ko'p darajada namoyon qildiki, u falsafanigina emas, balki riyoziyotni (matematika) ham nazariylashtirishni taklif qildi. Ba'zi bir handasaviy (geometrik) aksiomalar ifodasi unga

tegishlidir: “tomonlari teng bo‘lgan uchburchakning asosiy burchaklari bir-biriga tengdir”, “doira o‘z diametrda ikki teng bo‘lakka bo‘linadi” va shunga o‘xshash (hammasi bo‘lib beshta aksioma). Shunday tuyilishi mumkinki, ularda faqat tajriba ifodalanib, umumlashtirilyapti. Ammo bu shunday emas: aksiomalar g‘oyaviy ob’ektlarga taalluqli bo‘lib, umumiy va zaruriy jihatlariga ega bo‘lganligidan ularni dalil va mulohazalar asosi sifatida foydalanish uchun qabul qilish mumkin. Fanlarni bunday tarzda tizimga solish Bobil riyozidonlariga ma’lum emas edi. Ular ko‘plab hisob-kitob formulalarini ishlab chiqdilar, ammo ularni isbot qilishga urinmadilar.

Aqliy yo‘nalishga tayanish qadimgi Yunon adabiyotining o‘ziga xos xususiyatini belgilaydi. Gomerni odatda ehtiros va g‘am-g‘ussalar dunyosiga yo‘nalgan falsafa oldi an‘anasining vakili hisoblashadi: og‘riq va lazzat, muhabbat va nafrat, qo‘rqinch va uyat – mana nimalar band qilgan Gomer xayolini. Uning qahramonlari aniq va ravshan tasvirlangan bo‘lib, ularning tashqi ko‘rinishlari o‘z ikir-chikirlarigacha, hamda ijtimoiy butunligicha ham aniqlangan. Ular g‘oyaviy makon hududlarida harakat qilayotgan, qonuniylikka muvofiq tarzda sug‘orilgan va sababiy bog‘lanishlarga ega bo‘lgan yo‘nalgan gavdalar sifatida namoyon bo‘ladilar. Qadimgi dunyo qahramonlarining ruhiy dunyosi ham ochiq va oqilonadir: biror-bir xatti-harakat qilish oldidan ular o‘z nuqtai nazarlarini mufassal muhokama qilib, dalillar keltiradilar. Hikoyachilik vajlarni aql tarozisiga soladi, voqealar sabab-oqibat zanjirini aniqlaydi, so‘zlarda jismoniy va ruhiy harakatlarning ham to‘la ifodasini beradi. Bu shunday tarzda beriladiki, bunga o‘xshash holat Evklid geometriyasi va Arastu metafizikasida ko‘rilgan edi: keltirib chiqarilayotgan qoidalarni aniq ifodalash, mantiqiy yemirilishsiz, batafsil xulosa, tajriba va sog‘lom aqlga muvofiq keladigan puxta dalillarga tayanish. Shunday qilib, yunon adabiyoti voqeiylilikning asosiy mazmunini beradi, uning mohiyatini aniqlab, uni ikkinchi darajali tafsilotlardan tozalaydi. Ushbu mohiyat faqat aqliy jihat bilangina tugallanmasligi bu boshqa masala: qahramonlarning shakllanishi faqat ma’rifat bilan cheklanmasdan, balki xotira, iroda, jasoratni mashq qildirish va Koinot qonunlariga muvofiq ravishda jamiyatni qayta qurish va o‘z-o‘zini tarbiyalashning amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda bu yerda undan oldingi qadimgi jamiyatlarda rasm bo‘lgani singari yosh yigitlarning balog‘atga yetganligini aniqlash uchun o‘tkaziladigan sinovlar yo‘q. Garchi

ijtimoiy xatti-harakatning qat'iy me'yoriy tizimini ishlab chiqishga intilish bo'lmasa ham, ayni vaqtda ta'lim-tarbiya aqliy muhokama shaklida amalga oshiriladi, ya'ni bilimdon kishilar majlisida muhokama etilgan ustoz va shogirdning dalillari e'tiborga olinadi. Ikki kishi o'rtasida bo'lib o'tadigan bunday aqliy muhokama bo'lgan diskursning zamini musobaqa va saylovga asoslangan ruhdagi polisning demokratik tuzumidir. Bunga katta bilimdon ustozlar, o'quvchilar va bilmaydiganlarni xo'rlamasdan, balki o'zlarining iqtidorlari, tajribalari, oqilona fikrlari bilan ularga namuna bo'lib, ular tomonidan tan olinishlikka intilishlari lozim bo'ladi.

Ko'hna falsafiy matnlarni tushunish, ularning madaniy zamini bo'lgan til, milliy o'ziga xoslik va hayot shakllari bilan bog'liq bo'lgan jihatlarga ko'ra katta qiyinchiliklar tug'diradi. Har qanday tarixiy davr faqat erishilgan bilimlar darajasi bilangina ifodalanmay, balki fikr taraqqiyoti yo'nalishini belgilovchi qadriyatlar yo'nalishi bilan ham o'z ifodasini topadi. Yozuv stoli ustida amalga oshirilgan metafizikani dalillar tizimi sifatida tushunishga qarshi turgan M. Haydegger uni dunyodagi borliq tajribasi bilan bog'laydi¹.

Falsafiy tushunchalarning kelib chiqish ma'nosi ruhiy tarkiblarda ham, "ongsiz ravishdagi arxetiplarda" ham ildiz otgan. Masalan, qanday tajribaviy omillar yoki nazariy dalillar Falesga barcha borliqning birinchi ibtidosi sifatida suvni, Geraklitga esa – olovni olishga turtki bo'lganligini bilish qiyin ish. Vaholanki, olamning ushbu tabiiy unsurlari barcha dunyo xalqlarining afsonalarida mavjud. Bu shundan guvohlik beradiki, ular inson ruhining kelib chiqish timsolining tasvirlari bo'lib, o'z navbatida ular falsafiy tushunchalar mazmunida ham saqlanadilar. Shuni hisobga olish lozimki, metafizikaning ruhiy tajriba majmuasining aqliy madaniyat sifatidagi shakliga ikki tomonlama ta'siri o'z-o'zini anglashdan tashqari xotira, iroda, his-tuyg'u, baholash, e'tiqod va shunga o'xshash jihatlarning ichki ruhiy omillari majmuasi shakllanishini ham o'z ichiga oladi. Bir tomondan, aql ruhiy jazava va ehtirolarni nazorat va tahlil qiluvchi vosita sifatida maydonga chiqsa, ikkinchi tomondan – u ularni buzishga xavf tug'diradi. ***Hali yaxshi ma'lum emaski, xudoning borlig'ini aqliy ravishda isbotlashga urinish nimaga ko'proq qo'l keldiykin – e'tiqodni mustahkamlashgami yoki buzishgami?***

Asosiy falsafiy muammolarda ham xuddi shunday holat kuzatiladi.

¹ Qarang: Хайдеггер М. Основные понятия метафизики (Введение). (Metafizikaning asosiy tushunchalari (Kirish))//Вопросы философии. –М., 1989. –№9.

Haqiqat, borliq, ezgulik va go‘zallik haqidagi masalalar shunday bir narsalar tug‘diradiki, kishini cho‘chitib yuboradi. Falsafa donishmandlik va xotirjamlik bag‘ishlovchi hayot san’ati bo‘lmay qoldi. Bizning hozirgi zamon madaniyatimiz kamchiliklari aybini aqlni butun borliqning asosi sifatida e‘lon qilgan ilk yunon faylasuflariga to‘nkash adolatdan bo‘lmaydi. Aql g‘oyasining paydo bo‘lishi – insoniyat tarixida eng muhim hodisadir. Borliq va yo‘qlikni, haqiqat va fikr dunyosini bir-biridan ajratish aqliy tajribani nazorat qilish imkoniyatini beradi. U shuningdek, voqeyilikdan ijodiy xayolni ajratishga, yashirin narsalarni muhokamaga olib chiqishga imkon beradi. Shayton, jin, ajina va safsataga qarshi kurashda aql metafizikasi insonni tabiat asirligidan sug‘urib olib, uni eskirgan illatlar va xurofotlardan ozod qiluvchi mutlaq qadriyatlar tomon boshlaydi. Ammo oliy narsa quyi narsani ezmasdan, uni saqlashi lozim. Uzoq vaqt yurak va aql bir-biridan ajralmagan holda yashadilar, birining kuch-quvvati va ikkinchisining aqliy boshqaruvi his-tuyg‘u bilan bezatilgan va ayni zamonda tartibga solingan hayotiy dunyoni vujudga keltirdiki, unda inson o‘zini ro‘yobga chiqara olar edi. Bugungi kunda yagona mantiqqa va tizimlilikka yo‘naltirilgan aql hokimiyat diskursini namoyon qiluvchi idrokka aylanmoqda. U borliqni buzib, uni dunyoning texnik manzarasiga aylantirmoqda.

Qadim dunyo va o‘rta asrlar falsafasida aql boshqaruv markazi sifatida maydonga chiqib, haqiqatni aniqlash masalalarida bosh hakam edi. Aql, ruh va tana tabaqalangan ravishda tushunilar edi: tana harakatining sababi ruh, deb tushunilsa, bu harakatni yo‘naltiruvchi esa aql hisoblanar edi. Biroq, shunday tabaqalashgan namunani aniq bayon qilgan Arastuda ham aql inson va jamoadan yuqori turuvchi kuch sifatida maydonga chiqib, borliqning o‘z hokimiyatining namoyondasi vazifasini bajaradiki, uning tartibiga muvofiq hayot va ma’rifatning har qanday shakllari tashkil topadilar. Aflotunda esa borliq mohiyatini aqliy tushunish tarzi bilan bir qatorda, nazariyadan tashqarida turuvchi kuch borligi taxmin qilinadiki, u insonni rohat-farog‘atga, eng yaxshi erosga boshlab boradi. Shuning uchun haqiqat, ezgulik va go‘zallik haqidagi masalalarni yagona butunlikka bog‘lashga urinish yunon mutafakkirlariga xos narsadir. Koinotga esa hamohang tovushlar jaranglayotgan nafis mutanosiblikdagi inshoot qiyofasi beriladi. O‘z qismlari bir-biriga muvofiq va odilona joylashganligi tufayli yaxshi qurilmaga ega bo‘lgan Koinot, o‘zining yetuk tartibda ekanligidan o‘z-o‘zini saqlaydi: unda bir joydan

ikkinchisiga o'tish yoki o'zgarish uchun sabab yo'q, negaki unda hamma narsa o'z joyida. Faqat yetuk bo'lmagan narsagina harakat qiladi va azob chekadi. Shuning uchun inson Koinotni yaxshi ko'radi, unga mansublikka intiladi, u yetuklikka erishishga umid qiladi.

Arastu o'zicha osmon gumbazi, Yer hamda barcha o'simliklar va jonzotlarni sig'dirgan borliq doirasi sifatida tabiatni (fyuzis) mohiyatini ochib beradi. Aynan ana shu tabiiy doira, sun'iyga qarshi o'laroq (texne), bilim mavzusi (episteme) sifatida maydonga chiqib, paydo bo'lish va zavol topish, borliqning bir butunligi, ayrim olingan ashyolarning ichki mohiyati, birinchi harakatlanuvchi kuch, ruh va shunga o'xshash masalalar haqidagi qarashlarni o'rtaga qo'yadi. Voqeyilik xayoliy g'oyalar dunyosi yoki mutlaq shifr sifatida emas, balki mustahkam, o'z-o'zini saqlanishi uchun tashqi kuchlarga ehtiyoji bo'lmagan, o'rganilishi lozim bo'lgan ob'ektiv tartib sifatida qaraladi. Aql ruhga yoki g'oyalar saltanatiga qarab emas, balki aynan ungagina qaratilgan. Uning birinchi amali – ayrim ashyolarni qabul qilish bo'lib, undan keyingina o'zining tafakkur, xotira, ajablanish, tushuntirish va shunga o'xshash mexanizmlarini ishga soladi.

Aflotunchilar nazarida ruh bevosita o'z-o'zini tushungan vaqtda, ruhning Arastucha talqini qoidasi tananing hissiy tajribasini, mantiqiy qonunlar va kategoriyalarni ham hisobga oladi. Ruh haqidagi barcha mulohazalar sabab-oqibat va ayni zamonda maqsadli qatorlarda harakat qiladilar. Aql masalasida Arastu uning faol va faoliyatsiz qismlarini bir-biridan farq qiladiki, bu ustoz va shogird munosabatini eslatadi. Ana shu jihatdan Stagiritning risolalari Aflotunning dialoglaridan farq qiladi. Aflotunda o'z-o'zini bilish ham, shuningdek o'rganish ham, suhbat qurish asosiga qo'yilgan. Arastu asarlarida bahs yuritish unsurlari jonli bahs sifatida emas, balki ilmiy talqin va ob'ektiv naqlu qavl (sitata) va boshqa-lar aytgan fikrlar va nuqtai nazarlarni bir-biriga solishtirish sifatida mavjud. Aftidan, asarlarining ana shunday shakli o'rta asr universitetlarida va Sharq mamlakatlarida g'oyat darajada mashhur bo'lib ketishiga sabab bo'ldi.

Tafakkur Arastu tomonidan faol aqlning faoliyatsizligiga nisbatan ta'siri sifatida tushuniladi. Birinchisi insonga taalluqli emas, u yagona va umumiy bo'lganligidan, kimki fikr yuritisa, barcha uchun haqiqatni yagona tushunishni shart qilib qo'yadi. Stagirit talqinicha, inson aqlli va halok bo'lishi muqarrar hayvon, insonga aloqador bo'lgan aqlgina mangudir.

Aql haqidagi bu ikki nazariya o'rta asrlar falsafasida qaytadan

jonlantirilib, diniy e'tiqodga bog'liq ravishda ushbu an'ana rivojlantirildi. Shu jihatdan xudoni borligini isbot qilish bilan shug'ullangan, e'tiqod asoslari va muqaddas Kitob tahlili bilan band bo'lgan ilohiyotchilar aqliy yo'nalish shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Masalan, V.Okkamning xristiancha tabiat falsafasi va koinot haqidagi qarashlari Kopernik g'oyalari va Impeto fizikasini oldindan payqaganligi ajablanarli emas.

Xuddi shu tarzda o'rta asr sxolastlari trinitar va yevxarist muammolarini muhokamasi chog'ida shunday diskursni ishlab chiqdilar, u ko'plab ilmiy tushunchalarni paydo bo'lishini belgilab berdi: javhar va oraz muammosi, birlamchi va ikkilamchi sifatlar, imkoniyat va voqeiylik. Bular Yangi davr falsafasi va ilm-fani uchun xos tushunchalar bo'lib, aynan sxolastikada birinchi marta o'rtaga qo'yilgan va muhokama qilingan edi.

Aflotunning ruh haqidagi qoidasi xristianlik uchun ayniqsa yaqin edi. Tasodifiy emaski, Avgustin tan olib qayd etgan ediki, aynan Aflotun asarlarini o'qish uni yagona xudo aqidasi, ruh esa abadiy baxt-saodat manbai ekanligiga olib kelgan edi. Suqrot vasiyatlariga amal qilgan holda, u xudo va ruhni tushunishga intildi va bu bilan abadiy rohat-farog'atni qo'lga kiritmoqchi bo'ldi. Xudo – ruhda yashovchi haqiqatdir va shuning uchun barcha kuch-quvvatlar uni bilishga qaratilmog'i lozim. Inson – bu tana qobig'idagi ruh bo'lib, unga ko'proq yordam berishdan ko'ra, haqiqatda unga halal beradi. Shuning uchun bilish qoidasi va ayni zamonda diniy tajriba shunday asosga quriladi: inson ruhni o'rganishga chuqur kirishib boradi, negaki, unda abadiy g'oyalar mavjud bo'lib, ularga muvofiq ravishda xudo olamni yaratgan; bu g'oyalarni ochiq bo'lganligi tufayli voqeiylikning qorong'i va chigal hodisalariga kirib borishning imkoni borki, ular xudoning namoyon bo'lishi sifatida talqin qilinib, bu bilan xristian dunyoqarashining timsollarini belgilaydi.

Sharqda o'rta asrlar arastuchiligi boshqacharoq muhitda shakllanib bordi. XIII asrning boshida uning xristianlikka nisbatan dushmanligi anglab yetildi va u ta'qiqlandi. Shunday bo'lsa ham uning tavsiyalari o'rta asr universitetlarida faol amalga oshirildi, negaki, Arastuning asarlari shakl jihatdan ma'ruza o'qish va doiratul maorif (ensiklopediya) ma'nolarini yo'lga qo'yishga juda ham foydali bo'lib chiqdi. Arastuchilik, albatta, bilim va e'tiqodni birga qo'shgan tomizm tomonidan mohiyat jihatdan zararsizlashtirilgan bo'lsa ham, dunyoni tushunish sifatida tarqaldi. Ilmiy diskurs sezilarli darajada

o'zgarishlarga duchor bo'lgan bo'lsa ham, ammo tabiiy ilmiy yo'l-yo'riqning o'zi saqlanib qoldi va tarqaldi.

Har qanday boshqa narsalar kabi inson shaxsiyatining o'rta asrlardagi qurilmalari ijtimoiy va davlat muassasalari tomonidan o'rta qo'yilgan vazifalar bilan belgilanar edi. Hokimiyat ixtiyoridagi maxsus markazlar vositasida amalga oshiriladigan majburiy munosabatlar ijtimoiy tizimlarda to'g'ridan-to'g'ri zo'rlik va jazolash bilan emas, balki xatti-harakat va munosabat yurgizishning ijtimoiy-zaruriy me'yorlarini qo'llash orqali kishilarni boshqarish ko'proq muhim ahamiyatga ega bo'lib bordi. Fikr va zikr, mayllarning manbai sifatidagi ruh haqidagi g'amxo'rlik shundan kelib chiqqan edi. Ular biror sabab qo'zg'atuvchi emas, balki nazorat ostida bo'lmoqlari zarur edi. Agar Arastu faol va majhul aql, ruhning oziqlantiruvchi, sezilarli, harakatlanuvchi va aqliy shakllarini bir-biridan ajratgan bo'lsa, o'rta asr mualliflari ruhiy jarayonlar unsurlarini undan ko'ra puxtaroq darajalarga va subordinatsiyalarga bo'ldilar. Masalan, gunohga sabab bo'ladigan o'n ikki yo'ldan ozdirish vositasini ajratib ko'rsatib, ularni o'z navbatida yetti jihatdan qarab chiqdilar; gunohga tortuvchi ruh zaifligining olti xilini joriy qildilar. Agar Arastuning aql haqidagi diskursi ilmiy qiziqish bilan sug'orilgan bo'lib, demokratik polisning ijtimoiy qadriyatlar adolatliligi, qonuniyligi, vatanparvarlikning ijtimoiy hissiyoti, ezgu shon-sharaf va shunga o'xshashlar bilan to'lib toshgan bo'lib, polisning talablarini ifoda qilsa, o'rta asrlardagi til uslubi, ya'ni ruhiy jarayonlarni gunoh va tavba istilohlarida bayon qilinishi juda ko'p darajada hokimiyat manfaatlari bilan to'lib toshgan edi. Inson tanlab olishga qodir bo'lgan ozod shaxs sifatida namoyon bo'ldi va shuning uchun o'z-o'zini nazorat qilishning shunday mexanizmi zarurki, toki u, bu tanlangan narsani jamiyat uchun kerakli bo'lgan yo'nalishga solib yubora olsin.

“Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi”¹.

Musulmon Sharqida falsafiy tafakkurning paydo bo'lish tarixi yozma ravishda VIII asrga taalluqli bo'lib, ilk kalom vakillari bo'lgan

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. –B.137.

mo‘‘taziliylarning faoliyati bilan bog‘liqdir. Ilohiyot bahslarida o‘zlarining qat‘iy aqlga tayanishlari bilan alohida ajralib turgan ilohiyotchilar guruhi bo‘lgan mo‘‘taziliylar Bag‘dodda xalifa Ma‘mun saroyida katta nufuzga ega bo‘ldilar. Insonning iroda erkinligi va ilohiy sifatlar masalasini muhokama qilishdan o‘z faoliyatlarini boshlagan mo‘‘taziliylar shunday ta‘limotni ishlab chiqdilar, u diniy mavzudan chetga chiqish bilan cheklanmasdan, hatto musulmonchilik e‘tiqodining ba‘zi aqidalarini ichdan buzar edi. Masalan, ularning qayd etishlaricha, tabiat qonunlarigagina muvofiq faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan Allohga qarama-qarshi o‘laroq, inson o‘z irodasicha har qanday xatti-harakat ko‘rsatishi mumkin edi. Uning uchun ezgulik va yovuzlikning yagona mezonini sifatida uning aqli xizmat qilmog‘i lozim edi. Ular birinchi bo‘lib Xoliqni inson qiyofasida tasavvur etishga qarshi chiqib, unga majhul ilohiy g‘oyani qarama-qarshi qo‘ydilar, o‘z mohiyatiga ko‘ra u iroda, qudrat, bilim va boshqa sifatlardan holi edi. Jumladan, xudoda nutq borligini inkor etib, Qur‘onning abadiyligi haqidagi ta‘limotni rad etdilar. Qur‘onni bunday talqin qilish mo‘‘taziliylarga va keyinchalik arastuchilarga uni ramziy ma‘noda tushunishga imkon berib, o‘z qarashlarini unga muvofiqlashtirishga yo‘l ochdi.

Tabiat haqidagi ta‘limotda mo‘‘taziliylarning ko‘pchiligi atomistik nazariyadan kelib chiqib, shuni qayd etdilar, har qanday jism izchil bo‘linish jarayonida bo‘y, rang, hid va boshqa sifatlarga ega bo‘lgan unsur parchalarga bo‘linadilar. Har bir shunday zarra bo‘yga ega bo‘lmagan muayyan miqdorda atom parchalaridan tashkil topgan bo‘lib, harakat qilish va sokin holatda bo‘lishdan boshqa har qanday xususiyatlardan holidir. Bunday nazariyadan quyidagicha xulosalarga kelish mumkin edi: borliqning shakllari abadiy bo‘lgan moddaning o‘zida imkoniyat darajasida mavjuddir, ammo, majhul qarashga ko‘ra, u qandaydir shakllanmagan va shuning uchun u yo‘qlik bilan ayniyatdadir; xoliqning yagona vazifasi barcha zaruriy sifatlarga ega bo‘lgan moddani yana bir sifat, ya‘ni mavjudlik bilan siylashdir; moddiy dunyoda ko‘zga tashlanadigan barcha hodisalar sababiy shartlangan xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘z asoslarini tabiatdagi ashyolarda topadilar. Mo‘‘taziliylarning barcha hodisalarni aqliy yo‘l bilan bilish mumkinligi haqidagi aqidalari ana shundan kelib chiqadi. Ular bilishni vahiy orqali idrok qilishga salbiy munosabatda bo‘ldilar. Ilk islom aqidalariga ishonishni ularning ko‘pchiligi faqat shuning uchun qabul qilish mumkin, deb bildilar, ular axloqiy doirada

ko'pchilikka foyda yetkazishi mumkin.

Xalifa Ma'mun (813-833) hukmronligi yillarida mo'ʼtaziliylar ta'limoti Abbosiylar davlatining rasmiy mafkurasi deb e'lon qilindi. O'zining siyosiy muxoliflari bilan ittifoqda bo'lgan ilk islom aqidalaridagi ruhoniylarga qarshi kurashda Iroq savdogarlari va hunarmandlariga tayangan Ma'mun o'z siyosiy faoliyatida Sharqda misli ko'rilmagan ishni qilib, tabiatshunoslik va falsafa fanlarini rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib berdi. Aynan, ana shu davrda tarjimachilik harakati keng quloch yozib, arablarni qadimgi davr ilmiy tabiatshunosligi va falsafiy merosi bilan tanishtirish jarayoni boshlandi.

Musulmonlarni qadimgi yunon mutafakkirlari asarlari bilan tanishtirish Suriya xristianlari orqali amalga oshirildi. Og'ir mehnat bo'lgan ikki tomonlama tarjima jarayoni, ya'ni yunon tilidan Suriya tiliga, undan arab tiliga qilingan ishlar avval boshda ko'proq tabobatga, tabiiy-ilmiy asarlarga qaratilgan edi. Ammo tez orada kitobxon ziyolilar va tarjimonlarning qiziqishi falsafiy adabiyotlarni ham qamrab oldi. Bu qonuniy jarayon edi. Chunki, Sharq xalifaligi deb atalgan Bag'dod va unga tobe bo'lgan musulmonlashish jarayoni boshlangan o'lkalarda savdo-sotiq va hunarmandchilik gurkirab o'sib, ular asosida matematika, mexanika, optika, kimyo, astronomiya, jug'rofiya, tabobat va boshqa nazariy va amaliy fanlarga ehtiyoj katta edi.

Ma'rifatli doiralar diqqat markazida Arastu falsafasi turar edi. Biroq, uni musulmon dunyosida o'zlashtirish shunday xususiyatga ega ediki, uning asarlari bilan tanishish keyingi davr arastuchilari va yangi afltuncha sharhchilar vositasida, masalan, Aleksandr Afrodiziy, Femistiy, Porfiriya va boshqalar ijodining samarasi orqali amalga oshirilgan edi. Bir qancha uydirma asarlar ham keng tarqalgan bo'lib, ulardan eng muhimi "Arastu ilohiyoti" deb atalgan asar edi. Ushbu asar aslida Plotinning "Enneadlar" asarining bir necha boblaridan iborat edi. Ana shunday "yangi afltunchilikka aylantirilgan" arastuchilik musulmon sharqi arastuchilari tomonidan ishlab chiqilgan ta'limotga asos bo'ldi.

Musulmon Sharqi arastuchiligining asoschisi "arablar faylasufi" deb nom olgan Abu Ishoq al-Kindiy (800-870) edi. U arablardan birinchi bo'lib, Arastu falsafasining asosiy qoidalarini ilmiy amaliyotga kiritdi. Al-Kindiy o'z risolalarida tabiat hodisalarini sababiy bog'lanishda ekanliklarini ko'rsatishga harakat qildi. Olamni

zamonda yaratilganligini inkor etmasa ham, xudoni u “uzoqdagi sabab” sifatida ko‘rsatib, garchi u dunyoni yaratgan bo‘lsa-da, uning kelgusida o‘z qonunlariga muvofiq ravishda rivojlanishiga imkon beradi. Sharq arastuchiligi tarixida uning tomonidan oldinga surilgan aqlning to‘rt xili haqidagi ta’limot katta o‘rin tutadi; “faol aql”, ya’ni tashqi borliqqa ega bo‘lgan umumiy narsalar majmuasi; “imkoniyatdagi aql”, ya’ni ruhning tashqi umumiy narsalarni qabul qilishga qodirligi, ya’ni inson tomonidan yozish san’atini o‘rganishga o‘xshash; “kasb etilgan aql”, ya’ni yozish san’atiga o‘xshagan, ruhda faol ravishda mavjud bo‘lgan, ammo hali kotib tomonidan foydalanmagan qobiliyat; “o‘zini namoyon qiladigan aql”, ya’ni o‘sha kasb etilgan aql, ammo o‘zini yozish san’ati kabi tashqarida namoyon qilgan va kotib tomonidan yozish jarayonida idrok etilgan aql.

Sharq arastuchiligining bundan keyingi taraqqiyoti Abu Nasr Forobiy (870-950) va Ibn Sino (980-1037)lar nomi bilan bog‘liq. Al-Kindiyga qarshi o‘laroq, bu ikki faylasuf xudo olamni yaratib qo‘yib, uning ishlariga aralashmaydi, degan aqidani rad etib, dunyoni xudo kabi abadiy ekanligini isbot qilib, “dunyoni yaratilganligi” istilohidan bosh tortmagan holda unga shunday ma’no baxsh etdilarki, xudo “vojibul vujud sifatida o‘z mohiyatidan kelib chiqib”, moddiy dunyo mavjudligini faqat himoya qiladi xolos. Moddiy dunyo esa “o‘zi tufayli mumkinul vujud” sifatida maydonga chiqadi. Ularning fikricha, xudo mutlaq birlik bo‘lganligidan qandaydir ko‘plikning sababi bo‘la olmaydi: yagonalikdan bevosita faqat yagonalik kelib chiqadi. Xudodan birlik mahsuli sifatida kelib chiqadigan o‘z-o‘zini bilish natijasi bo‘lgan “birinchi aql” maydonga chiqadi. “Birinchi aql” vojibul vujud bo‘lganligidan xudoni idrok etadi va undan “ikkinchi aql” kelib chiqadi, negaki, u ayni zamonda o‘z-o‘zini bilganligi uchun mumkinul vujud hamdir. Shuning uchun undan o‘z moddiyligi bilan va unga muvofiq keladigan shakl bo‘lgan ruh sifatida oliy samoviy doira kelib chiqadi. “Ikkinchi aql” o‘z navbatida kelgusida keladigan doiraning ruh va jismini, hamda undan ham pastki doirada joylashib o‘zini boshqarib turuvchi doira bo‘lgan “uchinchi aql”ni keltirib chiqaradi va hokazo. Shunday kelib chiqishlar tizimi bo‘lgan emanatsiya “faol aql” bilan tugallanadiki, u oy ostidagi dunyoda mavjud bo‘lgan insoniy ruh va to‘rt unsur borlig‘ining sababi – “paydo bo‘lish va zavol topish dunyosi” sifatida maydonga chiqadi.

Xudo Forobiy va Ibn Sino ta’limotida, al-Kindiy ta’limotida bo‘lgani kabi “uzoqdagi sabab” vazifasini bajaradi. Xudoning

dunyoga bo‘lgan munosabatini bunday talqin qilish tabiatga mansub bo‘lgan g‘oyalarni rivojlantirishga keng imkon yaratadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. Sharq falsafasini o‘rganishning nazariy va uslubiy asoslari.....	20
1-§. Falsafaning musulmon jamiyatida tutgan o‘rni va asosiy vazifalari	20
2-§. Sharq falsafasining asosiy muammolari va ma’naviyatda tutgan o‘rni.....	24
3-§. Falsafaga Sharq mutafakkirlari tomonidan berilgan ilmiy ta’riflar.....	29
II.BOB. O‘rta Sharq va Markaziy Osiyoda falsafiy ilmlarning tarqalishi	36
1-§. Ilk falsafiy tafakkurga Yunon, Iskandariya va O‘rta Sharq merosining ta’siri.....	36
2-§. G‘arb tadqiqotchilarining islom falsafasi haqidagi izlanishlari...	40
3-§. Falsafiy matnlarning tarjimalari.....	41
4-§. Islom falsafasiga Eron va Hind falsafasining ta’siri.....	42
5-§. Siyosiy va mazhabiy munozaralar.....	44
6-§. Yunon mantiqiy tafakkurini arab dunyosiga o‘tishiga vositachilik qilgan xristianlar.....	45
7-§. Abbosiylar sulolasi davrida mantiqiy tadqiqotlarning qo‘llab-quvvatlanishi.....	47
8-§. Mantiq bo‘yicha 900 milodiy yilgacha arab tilida yozilgan asarlar.....	48
III BOB. Ilohiyot falsafasi (kalam), hadisshunoslik va fiqhning shakllanishi....	51
1-§. Aql bilan dinni bir-biriga tadbiq etishga urinish va uning namoyondalari.....	51
2-§. Abul Hasan al-Ash‘ariy (874-933) va Abu Mansur al-Moturidiy (870-944)larning kalam maktablari.....	54
3-§. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy (810-870) faoliyati va hadisshunoslik.....	65
4-§. Fiqh – islom huquqshunosligining vujudga kelishi. Abu Hanifa, Abu Yusuf, Ash-Shayboniy va Burhoniddin Marg‘inoniy larning faoliyati	69
5-§. Ismoiliylarning diniy-falsafiy ta’limoti.....	84

IV BOB. Tabiatshunoslikning kelib chiqishi va islom	89
aqidalariga nisbatan ilmiy bahslarning boshlanishi	
1-§. Ibn Ravandiy va Muhammad Zakariyo Roziy qarashlari.....	89
2-§. Muhammad Muso al-Xorazmiy (783-850) va Ahmad al-	92
Fargʻoniy (797-865)larning tabiiy-ilmiy qarashlari.....	
3-§. Yangi pifagorcha falsafa va falsafiy ilmlarning yoyilishi.....	104
4-§. X asrda islom falsafiy madaniyatining yoyilishi.....	106
5-§. Markaziy Osiyoda yangi afltuncha maktab qarashlarining	110
taraqqiyoti. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino ijodi.....	
6-§. Abu Abdulloh Xorazmiyning falsafiy qarashlari (X asr).....	130
7-§. Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) ijtimoiy-falsafiy	133
qarashlari.....	
8-§. Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Xojiblarning dunyoqarashlari	139
(XI-XII asrlar).....	
9-§. Nosir Xisravning (1004-1088) falsafiy qarashlari.....	147
10-§. Umar Xayyomning (1048-1130) tabiiy-ilmiy va falsafiy	151
qarashlari.....	
V BOB. Tasavvuf falsafasi va uning Markaziy Osiyodagi	156
oqimlari	
1-§. Tasavvuf taʼlimotining mohiyati va nazariy tizimi.....	156
2-§. Yusuf Hamadoniy (1048-1140) faoliyati.....	165
3-§. Xoja Ahmad Yassaviy (1041-1167) qarashlari.....	166
4-§. Najmiddin Kubro taʼlimoti.....	169
5-§. Xojagon tariqati va Bahouddin Naqshband.....	175
6-§. Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va Alisher Navoiyning (1441-	180
1501) tasavvufga munosabatlari.....	
7-§. Tasavvufni nazariy jihatdan shakllantirishda Abu Homid	184
Gʻazzoliy (1058-1111) va Ibn Arabiy (1165-1240)larning oʻrni.....	
VI BOB. Musulmon Ispaniyasi (Andaluziya) falsafasi.....	192
1-§. Andaluziyada falsafiy tafakkurning boshlanishi (Ibn Masarra,	192
Majritiy va Ibn Bajja).....	
2-§. Ibn Tufaylning (1110-1185) falsafiy qarashlari.....	198
3-§. Ibn Rushd (1126-1198) falsafasi.....	200
VII BOB. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-falsafiy	203
fikr.....	
1-§. Saʼduddin ibn Umar Taftazoniyning (1322-1392) falsafiy	203
qarashlari.....	

2-§. Mir Sayyid Sharif Jurjoniyning (1339-1413) falsafiy qarashlari va mantig'i.....	206
XULOSA.....	212
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	219

QAYDLAR UCHUN

MUHAMMADJON QODIROV

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING FALSAFIY MEROSI

MONOGRAFIYA

Qodirov Muhammadjon. Markaziy Osiyo xalqlarining falsafiy merosi. – T., 2025. 226 b.

ISBN:978-9910-8553-9-9

Mas’ul muharrir:

I.R. Ikramova – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

J.B.Sulaymonov - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

G.M.Ruzmatova – Alfraganus university professori, falsafa fanlari doktori

Ushbu monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi 5-sonli yig‘ilishida muhokama etilgan va nashr etishga tavsiya etilgan.

Bosishga ruxsat etildi:

Bichimi 60x84 1/16 Shartli ... b.t.

10 nusxada bosildi.

kichik bosmaxonasi.

Toshkent, Shahrisabz ko‘chasi, 25-uy.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025